



SCIENTIFIC STUDIES ON THE HISTORY OF THE SCHOOL OF ORIENTAL STUDIES AND THEIR ANALYSIS

Kholdarov Akmaljon Akhmadjon ugli

Fergana State University, PhD student

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-0126-6789>

aaxoldarov95@gmail.com

+998993681543

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14513411>

ARTICLE INFO

Received: 11th December 2024

Accepted: 17th December 2024

Online: 18th December 2024

KEYWORDS

Oriental studies, greek and roman historians, arab-islamic culture, Toledo translation school, german orientalism, scientific translations, Goethe, Carl Heinrich Becker.

ABSTRACT

The article explores the origins and development of the concept of "Oriental studies." It examines the stages of scholarly interest in the East, starting from the Greco-Roman period, and analyzes the perspectives of ancient historians such as Herodotus, Xenophon, and Roman authors like Titus Livy and Tacitus. Special attention is given to the flourishing of Arab-Islamic culture during the Middle Ages, the role of the Toledo Translation School, and the contributions of German Orientalists. The article highlights the establishment of Arabic studies as an academic discipline in Germany.

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ИСТОРИИ ШКОЛЫ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ И ИХ АНАЛИЗ

Холдаров Акмалджон Ахмаджон угли

Ферганский государственный университет, аспирант

ОРЦИД: <https://orcid.org/0000-0002-0126-6789>

aaxoldarov95@gmail.com +998993681543

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14513411>

ARTICLE INFO

Received: 11th December 2024

Accepted: 17th December 2024

Online: 18th December 2024

KEYWORDS

Востоковедение, греческие и римские историки, арабо-исламская культура, Толедская школа переводчиков, немецкое востоковедение, научные переводы, Гёте, Карл Генрих Беккер.

ABSTRACT

В статье раскрывается происхождение и развитие понятия востоковедение». Рассматриваются этапы научного интереса к Востоку, начиная с греко-римского периода, а также анализируются взгляды античных историков – Геродота, Ксенофонта и римских авторов, таких как Тит Ливий и Тацит. Особое внимание уделяется развитию арабо-исламской культуры в Средние века, роли Толедской переводческой школы и научным исследованиям немецких востоковедов. Также рассматривается формирование арабистики как научного направления в Германии.

YEVROPADA SHARQSHUNOSLIKNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Xoldarov Akmaljon Axmadjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktoranti



ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-0126-6789>

aaxoldarov95@gmail.com: +998993681543

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14513411>

ARTICLE INFO

Received: 11th December 2024

Accepted: 17th December 2024

Online: 18th December 2024

KEYWORDS

Sharqshunoslik, yunon va rim tarixchilari, arab-islam madaniyati, Toledo maktabi, nemis arabshunosligi, ilmiy tarjimalar, Gyote, Carl Heinrich Becker.

ABSTRACT

Maqolada "sharqshunoslik" tushunchasining kelib chiqishi va rivojlanishi yoritiladi. Yunon va Rim davrlaridan boshlab, sharqqa bo'lgan ilmiy qiziqishning bosqichlari, yunon tarixchilari – Gerodot, Ksenofont, va Rim tarixchilari – Titus Livius, Tatsit kabi mualliflarning Sharq haqidagi qarashlari tahlil etiladi. Shuningdek, O'rta asrlarda arab-islom madaniyatining rivojlanishi, Toledo tarjimonlik maktabining roli va keyinchalik nemis sharqshunoslari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilinadi. Maqola Germaniyada arabshunoslik maktabining shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi.

Tarixiy-tahliliy metod. Sharqshunoslikning shakllanish bosqichlarini tarixiy jarayonlar orqali tahlil qilish. Uning Yevropada shakllanishini o'rganish orqali yangi ma'lumotlar berish.

Manbaviy tahlil . Gerodot, Ksenofont, Prokopius, Teofilakt Simokatta kabi qadimgi tarixchilarning asarlaridan foydalanib, sharqshunoslikning dastlabki ko'rinishlari o'rganildi.

"Sharqshunoslik" (fr. orientalisme, ingl. orientalism) lug'aviy ma'noda "sharqni o'rganish" yoki "sharqqa oid bilimlarni tadqiq etish" degan ma'noni anglatadi. Sharqshunoslik haqidagi ilk tasavvurlar – Yunon va Rim davrida boshlangan bo'lib, Qadimgi davrlardan boshlab, Sharq tushunchasi geosiyosiy, madaniy, iqtisodiy, va diniy ma'nolarni o'z ichiga olgan.

Qadimgi Yunonlar va Rimliklar Sharqni boshqacha dunyo sifatida ko'rganlar, uni ekzotik va sirli joy sifatida tasvirlashgan. Yunon mualliflari, xususan, Gerodot¹ o'zining "Tarix" asarining I kitobida Forslar hayoti, turmush tarzi, madaniyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tsa, III kitobida Ahamoniylar imperiyasining tuzilishi, harbiy qudrati haqida ma'lumotlar beradi. Yunonlarning Sharq haqida o'zlariga xos tasavvurlarini, forslar, misrliklar va hindlar bilan aloqador bo'lgan tarixiy voqealarini Ksenofont² o'zining "Anabasis" asarida keltirib o'tadi. Asarda Fors shohi va uning lashkarboshi Kirus, shuningdek, Fors imperiyasi va Sharqning boshqa tomonlariga oid tasvirlar keltiriladi.

¹ Gerodot (Herodotus) qadimgi yunon tarixchisi bo'lib, miloddan avvalgi V asrda yashagan va "tarixning otasi" sifatida tanilgan. U o'zining mashhur asari "Tarixlar" (Ἱστορίαι, *Historiai*) orqali antik dunyo haqida juda ko'p ma'lumotlar bergan. Gerodot taxminan miloddan avvalgi 484 yilda G'arbiy Kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida (hozirgi Bodrum, Turkiya) tug'ilgan. U yoshligida Misr, Fors, Vavilon, Finikiy kabi yurtlarga sayohatlar qilgan va u yerlardagi tarixiy, madaniy hodisalarni o'rgangan (Cartledge, 1993).

² Ksenofont (yunoncha: Ξενοφών, mil. avv. 430–354-yillarda yashagan) yunon tarixchisi, faylasufi va yozuvchi bo'lgan. U Afinada tug'ilgan va asosan Sokratning shogirdi sifatida tanilgan. Ksenofontning asarlari orasida "Anabasis" ("Yurish") asari mashhur bo'lib, unda u Fors podshohi Artaxshasning ukasi Kirning qo'shinini fors imperiyasining markaziga olib borishni tasvirlagan. Shuningdek, "Hellenica" (Yunon tarixi) asarida Peloponnes urushi va undan keyingi davrni tasvirlab beradi. Ksenofontning boshqa muhim asarlari qatoriga "Memorabilia" (Sokrat esdaliklari), "Oikonomikos" (Iqtisodiyot) va "Cyropaedia" (Kirosning tarbiyasi) kiradi. Manba: *Xenophon*, *Anabasis*.



Sharqning boy madaniyati, san'ati va adabiyoti doim G'arbning qiziqishini uyg'otgan va "Sharq mo'jizalari"³ iborasi bilan mashhur bo'lgan. Sharq ayniqsa Yunon davlati madaniy hayotiga ta'sir qilgan, chunki Sharq bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalar olib borgan. Sharqda rivojlangan ilmiy an'analar, xususan matematika, astronomiya va tibbiyot madaniy va ilmiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Rim imperiyasi o'zining kengayishi davomida Sharqdagi forslar va boshqa mintaqalar bilan aloqa o'rnatgan. Rimliklar Sharqni harbiy kuch, boylik va madaniyatning manbai sifatida ko'rgan. Sharqqa bo'lgan qiziqish Rim madaniyatida ham aks etib, unga madaniy va iqtisodiy qimmat bergan. Qadimgi Rim tarixchisi Titus Liviy⁴ o'zining "Ab urbe condita" asarida Rimning Sharq xalqlari bilan bo'lgan urushlari va ular bilan tuzilgan bitimlar haqida ma'lumotlar beradi. U xususan, Rim imperiyasining Sharq davlatlariga nisbatan olib borgan siyosati haqida so'z yuritadi va sharqliklarning jangovar madaniyati, diniy va axloqiy qadriyatlarini tasvirlab beradi. Tatsit⁵ "Annales" va "Historiae" asarlarida Parfiya va boshqa Sharq xalqlari haqida ko'p ma'lumot beradi. Tatsit sharqliklarni jasoratli va milliy qadriyatlariga sodiq xalq sifatida tasvirlaydi.

Vizantiya tarixchisi Prokopius⁶ning "Gizli tarix" asarida Vizantiya hukmdorlari va Sharq davlatlari hukmdorlari o'rtasidagi diplomatik va harbiy aloqalar haqida tafsilotlar mavjud. Imperatori Yustinian I davrida yashagan Menandr Protektor⁷ esa Vizantiyaning Sharq bilan aloqalarini, xususan, turkiy qabilalar bilan aloqalarni yoritib bergan. VII asrda yashagan Teofilakt Simocatta⁸ esa Vizantiya va Eron o'rtasidagi aloqalar haqida ma'lumotlar beradi. Shuningdek, Vizantiya davlat arxivlarida ham Eron bilan aloqalariga doir xujjatlar saqlanib qolgan.

Milodiy VI–IX -asrlarda arab-islom madaniyatining gullab-yashnashi Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy aloqalar rivojlanishiga turtki berdi. Bu davrda arab xalifaligi o'z kuch-qudratining cho'qqisiga yetib, boshqa madaniyatlar, xususan, yunon va hind ilmiy merosini o'zlashtira boshlagan edi. Ayniqsa, Bag'doddagi "Baytul hikma (Bilimlar uyi)"⁹ ilmiy va falsafiy

³ "Sharq mo'jizalari" haqida ma'lumot bergan asarlar Sharqshunoslik (Oriental Studies) doirasidagi ilmiy tadqiqotlar va asarlar orasida keng tarqalgan. "Sharq mo'jizalari" yoki "Sharqning mo'jizalari" deganda ko'pincha qadimiy Sharq xalqlari, ularning madaniyati, diniy e'tiqodlari, me'morchilik, san'at, ilm-fan va texnologiya borasidagi yutuqlari tushuniladi.

⁴ Titus Livius, odatda Liviy deb ataladi (mil. avv. 59 – mil. 17-y.), Rim tarixchilari orasida eng mashhur sanaladi. Uning Ab Urbe Condita Libri ("Shahar asos solinganidan beri kitoblar") asari

⁵ Rim tarixchilari orasida, Publius Cornelius Tacitus (Tatsit) qadimgi Rimning eng nufuzli va obro'li tarixchilaridan biri hisoblanadi. U asosan "Annales" va "Historiae" kabi asarlarida Rim imperiyasining siyosiy tarixini, ayniqsa, I asrda hukmronlik qilgan imperatorlar davridagi voqealarni yoritib bergan.

⁶ Izoh. Prokopius Kesarli (Procopius of Caesarea) VI asrda yashagan Vizantiya imperiyasining taniqli tarixchisi. Imperator Yustinian (Justinian) davrida sodir bo'lgan voqealarni yoritgan. Asarlari – "Yustinian urushlari" (The Wars of Justinian), "Bino ishlari" (The Buildings) va "Maxfiy tarix" (Secret History). Bu asarlar orqali Yustinian davrida imperiyaning siyosati, urushlari va ijtimoiy holati haqida ma'lumotlar bergan.

⁷ Izoh VI asrda yashagan Vizantiya tarixchi, Sharqiy Rim imperiyasi va qo'shni xalqlar bilan munosabatlarni tasvirlab bergan. Asosan u o'zining "Istoriya" asari orqali tanilgan,

⁸ VII asrda yashagan Vizantiya tarixchisi Teofilakt Simocatta imperator Moris (milodiy 582-602) hukmronligini hujjatlashtirgan "Tarix" (yoki "Tarixlar") asari bilan mashhur. Ushbu matn Vizantiyaning Sosoniylar imperiyasi, Bolqondagi avarlar va slavyanlar bilan munosabatlariga oid eng batafsil manbalardan biridir.

⁹ Bayt al-Hikma ("Hikmat uyi" yoki "Donishmandlik uyi") VIII–IX asrlarda Abbosiylar xalifaligining Bag'dod shahrida tashkil etilgan ilmiy va madaniy markaz bo'lib, Sharq va G'arbning turli bilimlar manbalarini birlashtirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Bayt al-Hikma xalifa Ma'mun hukmronligi davrida (813–



izlanishlarning markaziga aylangan. Bu maskanda yunon, hind va fors ilmiy meroslari arab tiliga tarjima qilinadi va tizimlashtiriladi. Bu tarjima harakati orqali yunon falsafasi, Arastu va Aflotun kabi olimlarning asarlari Sharqda keng tarqaldi va ilmiy tafakkur rivojiga katta hissa qo'shdi.

Fan tarixida arabshunoslik sohasi Yevropada aslida XVI asr so'nggida shakllangan, degan g'oya hukmronlik qilsa-da, XII–XIII asrlarda ijod qilgan tarjimonlar faoliyatining tahlili, ular arab tilidagi asarlarni nafaqat lotin tiliga o'giranliklari, balki tarjima qilingan asarlarni tadqiq etib, ayni tarjimalar asosida o'zlarning yangi-yangi asarlarini yaratganliklaridan dalolat bermoqda. Shu sababdan XII–XIII asrlarni Yevropada arabshunoslik sohasining yuzaga kelishidagi ilk bosqich, deb baholash to'g'ri bo'ladi". Shundan kelib chiqib sharqshunoslikning ilk bosqichi bu davrda ayni arabshunoslikdan boshlanganini taxmin qilish mumkin. Jarayon ayni Ispaniyada arablar hukmronligi o'rnatilgan hududda boshlangani ham, bu teoriyaning noto'g'ri emasligini ko'rsatadi. Bu davrdagi bir qancha tarjimonlik markazlari orasida " **Toledo** "10 tarjimonlik maktabi ko'plab tarjima qilingan asarlari bilan ajralib turdi. " XII–XIII asrlarda Toledo maktabida tarjima qilingan 123 ta asar aniqlanib, ular davriy va fanlar kesimida klassifikatsiya qilingan (asarlari 48 nafar muallif: 11 nafar antik davr, 32 nafar o'rta asr Sharq, 5 nafar Markaziy Osiyo olimlari qalamiga mansub bo'lib, ularning 56 tasi aniq fanlarga, 31 tasi tabiiy fanlarga, 36 tasi ijtimoiy fanlarga oid, asarlarning 25 tasi markaziy osiyolik olimlarga tegishli);11. Bu esa " Toledodagi maktabning fan tarixida tutgan o'rni nihoyatda muhim bo'lib, u XII–XIII asrlarda Sharq ilm-fan yutuqlarini G'arbga yetkazib beruvchi " tranzit punkti " vazifasini bajargan "12 degan xulosaga kelish mumkin.

O'rta asrlarning keyingi davrida sharqshunoslikning rivojlanishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatgan. Ulardan eng muhimi islom dinining rivojlanishi va musulmon davlatlarining kengayishi edi. Bunga qo'shimcha sifatida esa germaniyaliklarning XVI asrdan boshlab Usmoniylar imperiyasi va Eron madaniy hayotiga bo'lgan qiziqishini ham qayd etish joiz. XVII asrda ba'zi nemis xonliklari Sharq bilan savdoga ham qiziqish bildirib, dastlabki ekspeditsiyalarni tashkil etishgan. 1633-yilda Golshtiniya gersogi Fridrix III tashabbusi bilan Leypsig universiteti magistri, olim, yozuvchi va tarjimon Adam Oleariy 13 boshchiligidagi guruh Rossiya orqali Eronga 6 yillik sayohatini amalga oshiradi (1635-1639). Fors tilini o'rgangan Adam Oleariy keyinchalik Sadiyning "Guliston" asarini tarjima qiladi. Bu esa nemis adabiyotshunoslari orasida Sharq adabiyotiga qiziqishni paydo qiladi.

Xulosa. "Sharqshunoslik" va "Sharq" dastlab antik davrdan faqatgina geografik atama rolini bajargan bo'lsada yunonlar va rimliklar uchun savdo-tijorat jihatidan qiziqishga sababchi bo'lgan. O'rta asrlarda Sharq xalqlarining keskin rivojlanishi natijasida madaniy va ilmiy yutuqlarga erishgan Osiyonining markaziy, janubiy va sharqiy xalqlarini ifoda eta

833) ayniqsa gullab-yashnagan. Bu davrda ilmiy tarjimalar faol rivojlanib, yunon, fors, hind tillaridagi ilmiy asarlar arab tiliga tarjima qilingan.

10 Izoh. O'rta asrlarda Ispaniyaning Toledo shahrida joylashgan va arab, lotin va ispan tillarida yozilgan asarlarni tarjima qilishda muhim rol o'ynagan ilmiy markazdir. IX asr oxiri- XII asr.

11 Mahmudov O.V. Yevropada Markaziy Osiyo olimlari ilmiy merosini o'rganishda Toledo maktabining o'rni (XII – XIII asrlar). Toshkent.2018.-B-9.

12 Mahmudov O.V. Toledo maktabi – afsona yoki haqiqat: H.TS.Santoyo va A.Kalashnikovga raddiyalar //O'tmishga nazar. 4 jild. 4-son. Toshkent: 2021.- B. 39.

13 Adam Olearius (1599–1671) nemis geografi, diplomat va yozuvchi bo'lib, u XVII asrda O'rta Osiyo va Sharqiy Osiyo haqida muhim ma'lumotlar to'plagan.



boshladi. Islom diniga katolik cherkovining xusumati uni yaxshiroq o'rganishni talab qildi. Keyingi davrlarda kitoblar tarjimasi orqali antik davrlardagi yunon ilm fan yutuqlarini sharqliklardan o'zlashtirish osonligi tushunib yetgan yevropaliklar ijobiy qarashlarini ifoda eta boshashdi. XV-XVII asrlargacha arab xalqlari- sharqliklar haqidagi yevropadagi stereotiplarni ijobiy tomonga o'zgarishida nemis arbahunoslari, islomshunoslari hal qiluvchi vazifani bajarishdi. Germaniyada Sharq ilm-faniga qiziqishning kuchayishi fonida keyinchalik yevropalik yirik mulk egalari endi sharq madaniy qo'lyozmalariga egalik qilish uchun ham o'ziga xos raqobatni boshlab yuborishdi. "Islom sivilzatsiyasi" davrida yaratilgan asarlar yoki markaziy osiyolik, eronlik allomalarning asarlariga egalik qilish maqsadida maxsus ekspeditsiyalarni ham moliyalashtira boshlashdi. Bu harakatlar natijasida yevropa ilm-fanida yangi o'zgarishlar kuzatildi, Germaniya tarixchiligida arabshunoslik alohida o'rin egalladi. Bir qancha olimlar endi ilmiy kitoblarni tahlil qilish bilan shug'ullanishdi, islom diniga ijobiy qarashlar paydo bo'ldi. Germaniyaning Sharqqa nisbatan siyosiy qarashlari ijtimoiy ijobiy muhitni vujudga keltirdi. Bu esa keyinchalik butun Yevropa qarashlari o'zgarishiga olib keldi.

References:

1. Adam Olearius. *Guliston* asarining tarjimasi (XVII asr).
2. Bayt al-Hikma. VIII-IX asrlarda Bag'dodda tashkil topgan ilmiy markaz.
3. Goethe, Johann Wolfgang von. *West-östlicher Divan* (1819).
4. Mahmudov O.V. *Yevropada Markaziy Osiyo olimlari ilmiy merosini o'rganishda Toledo maktabining o'rni*. Toshkent, 2018.
5. Mahmudov O.V. *Toledo maktabi – afsona yoki haqiqat: H.TS.Santoyo va A.Kalashnikovga raddiyalar. O'tmishga nazar*. 4-jild, 4-son. Toshkent, 2021.
6. Menandr Protektor. Vizantiyaning Sharq bilan diplomatik aloqalariga oid ma'lumotlar.
7. Prokopius Kesarli. *Yustinian urushlari, Bino ishlari va Maxfiy tarix*.
8. Stephanie Bremerich, Dieter Burdorf und Abdalla Eldimagh. *Orientalismus heute Perspektiven arabisch-deutscher Literatur- und Kulturwissenschaft*. 2021.
9. Tacitus, Publius Cornelius. *Annales va Historiae*.
10. Teofilakt Simokatta. *Tarix*. VII asr manbasi.
11. Titus Livius. "Ab urbe condita libri" ("Shahar asos solinganidan beri kitoblar").